

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA IJTIMOY HIMOYA VA BANDLIK MASALALARINING IJTIMOY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

U.M. Muxtarov

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19343803>

Insonlarni ijtimoiy himoya qilish jarayoni bir kun, bir hafta yoki bir oy ya’ni muvaqqat amaliyot emas, balki ularni hayot va turmush mushkulotlari sabab tushib qolgan sinovlar girdobidan xalos qilish, ularga jamiyatning boshqa vakillari kabi farovonlik yorug‘ istiqbol, munosib turmush tarzi ato etishga yo‘naltirishga doimiy jarayon bo‘lishi kerak. Prezidentimiz faoliyatining dastlabki kunlaridanoq mansabdor rahbarlar va davlat tuzilmalari, keng omma bilan qanday tarzda muloqot qilishi kerakligi haqida asoslangan yetarlisha tushunchalar berdi. Ozigina vaqt ichida xalq va davlat muloqot jarayoni so‘zlardan iborat bo‘lib qolmay, mamlakatdagi har bir inson turmushida o‘z samarasini bermogda, namoyon bo‘lmoqda. Davlat tuzilmalari bugungi kunda keng omma bilan ochiq muloqot qilishga, kishilarning orzu-armon, dardlarini eshitishga “pastga tushib” ishlashga o‘rgandi. Xalq va davlat o‘rtasida ochiq muloqot liniyasi paydo bo‘ldi. OAV da so‘z erkinligi yuzaga kelib, qator ilmiy suhbatlarda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot limniyasi yuzaga kelib, aholi bilan muloqotlarda. Shuningdek, ayrim telekanallarning tanqidiy-tahliliy chiqishlarida uzoq vaqtdan beri yechim kutayotgan katta-kichik muammolar hal etildi. So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ro‘y berayotgan ijobiy voqealar va o‘zgarishlar keng jamoatchilik nigohidan chetda qolayotgani yo‘q.

Oldingi davrlarda moddiy yordamga muhtop kishilar qatlami tabiiy hol deb kuzatilgan bo‘lsa bugungi dunyo sharoitlarida hayotning hamma tamoyillari ilg‘or qarashlar bilan baholanmogda. Endilikda, uyda, maktabda, mahallada ibtidoiy qarashlar emas, balki yangicha qarashlar bilan inson turmush tarzini yaxshilash kun tartibidagi masala bo‘lib turibdi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, kimlar ijtimoiy yordamga muhtoj? Kam ta‘minlangan qatlam qaysi? Bu savollarga “Mehribonlik uy”larining tarbiyalanuvchilari, chunonchi, ota-onasi uzoq vaqt xorijdan qaytmayotganlar, darddan azob chekayotgan nogironlar, adashib jinoyat iziga kirgan yoshlar, boquvchisini yo‘qotgan nuroniylar, ijtimoiy sog‘lomlashtirishga muhtoj jazoni ijro etish muassasasidan qaytganlar, o‘sma va ruhiy kasallikka yo‘liqqanlar, tang vaziyatdagi oilalar shular sirasiga kiradi.

Oydinlashadiki, ba‘zilar muvaqqat ko‘makka, boshqalar esa doimiy qarovga muhtoj shu sabab, yuzaga kelgan mushkulotlarni samarali hal etishga qaratilgan yechim topish davr talabi edi, topildi. Horij tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy himoya ijtimoiy ta‘minot hamda ijtimoiy faoliyatga bo‘linadi.

1. Ijtimoiy ta‘minot tuzilmasi – davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan pensiya jamg‘armasi ajratadigan turli moliyaviy to‘lov tizimlarini qamrab oladi.

2. Ijtimoiy faoliyat tuzilmasi – shaxslarga individual hamda ijtimoiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishga ko‘maklashish ularning ishga yaraydigan toifasini qo‘lidan keladigan ishlar bilan band qilish va sog‘lomlashtirishga ko‘maklashuvchi tuzilma sanaladi.

Ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligini ta‘minlash uchun yagona muvofiqlashtiruvchi organ faoliyati kerak bo‘lib, u ijtimoiy himoya va ijtimoiy ishni samarali amalga oshirish uchun tuman tizimidan boshlab, barcha davlat tuzilmalari hamda nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Ushbu organ turli me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish, turli tashkilotlar tomonidan ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda

ijtimoiy ta’minot dasturining amalga oshirilishi va boshqarilishini monitoring qilish uchun mas’ul bo’lishi lozim.

Ijtimoiy himoya tizimining unumdorligini oshirish uchun yagona asosiy tuzilma kerak bo’lib, u yuqoridagi har ikki tuzilmani o’z ichiga qamrab tuman darajasidan tortib, davlat va nodavlat tuzilmalari bilan birgalikda uzviy faoliyat ko’rsatish kerak. Bu organ turli tuman hujjatlar bazasini shakllantirib, boshqa tashkilotlarning ijtimoiy himoya sohasida olib borayotgan faoliyatlarini boshqarishi, tartibga solishi va kuzatishi kerak.

Bandlik tizimi ko’ngildagidek ishlasa, hozirda kelajakka intilayotgan oliy o’quv yurti bitiruvchisi diplom olgandan so’ng ikkilanib qolmaydi va ijtimoiy himoya tizimida o’rnak ko’rsatib ishlashi mumkin bo’ladi. Mutaxassislik diplomi bo’lsada tizimda ishlamayotgan shaxslarning ish o’rnini topishida ko’maklashish tizimda tanqidga molik jihatlar borligini ko’rsatadi. Hozirgi kunda mamlakatimizga ikki toifa: ijtimoiy himoya hujjatlarini tom ma’noda mukammal yuritadigan savodli menedjer hamda qarovchisini yo’qotgan kimsalarga mehribonlik va qalb qo’ri bilan qaraydigan beminnat hamshiralalar safi kerak. Yangi O’zbekiston sharoitida bunga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilgari yaratilgan kadrlar tanlash siyosati hozirgi kunda nazariyotdan amaliyotga o’tib, sohada ijobiy yutuqlar ko’zga tashlanmoqda.

Yordamga muhtoj kishilarning o’zi bajaradigan ishi orqali farovon kelajagini belgilashi ahamiyatlidir. Ko’pgina xizmatlar keyinchalik fuqarolik jamiyati kuchi bilan ro’yobga chiqadi. Hukumat esa bu borada reestr tuzadi, meyoriy huquqit hujjatlar bazasini ishlab chiqadi. Himoyaga muhtoj insonlar hayotini yaxshilash uchun xususiy yakka tartibdagi tadbirkorlar, nodavlat tashkilotlar, homiylar, lozim ko’rilganda xalqaro donor tashkilotlarni ehtiyojmandlarni qo’llab-quvvatlashga jalb qiladi. Asta-sekin jahondagi ko’plab rivojlangan davlatlarda bo’lgani kabi himoya tizimi ham o’zgarib boradi. Bugungi kunda Qozog’iston, Rossiya va Belorusiyada ijtimoiy himoya tizimida ilg’or amaliyotlar qo’llanilayotgani ko’zga tashlanmoqda.

Masalan, tadqiqot davomidagi kuzatishlarimiz shuni ko’rsatdiki, Rossiya Federatsiyasida qarovsiz qolganlarga g’amxo’rlik qiladigan “Nochlejka” jamoat tashkiloti bor. Bu tashkilot uysizlarga boshpana beradi, tunlari esa bir necha oshxona bilan kelishgan holda (kafelarda buni “fudshering” dasturi deyiladi) issiq ovqat tarqatadi. “Nochlejka” xizmatchilari qarovsiz qolganlarga tibbiy ko’rikdan o’tishda ish topishda, hujjat rasmiylashtirishda, vaqti kelganda o’z olisa bag’riga qaytishga ko’maklashadi. “Nochlejka” saxovatli sarmoyadorlardan ust-bosh va mablag’ yig’adi. Shuningdek, tashkilotning e’lon taxtasi mavjud bo’lib unga qidirilayotgan qarindoshlarning surati qo’yiladi.

Bugungi kunga kelib farovonlikni oshirish va jamiyatga yuk bo’lmasligi uchun qariyalarva mehribonlik uylari tizimini isloh qilish kerakka o’hshaydi ya’ni usbi tuzilma doirasida tarbiyalanuvchilar va ishga yaroqli keksalar uchun ularning quvvati va layoqatiga bog’liq ish o’rinlari tashkil qilish mumkin. mazkur ishxonalarda qaramoqdagi keksalar to’rt devorli xonalarda yotish, kunduzi ruhiy tushkunlikda kunni kech qilish o’rniga o’zaro jiplashib fikr almashib mehnat bialn band bo’lishi mumkin. Aytish mumkinki, ba’zi bir qariyalar g’ayratni tark etmagan, yoshlikda yoki nafaqaga chiqquncha o’zlari shug’ullangan kasbu kor va mashg’ulot, hunar ko’nikmalarini tark etmagan bo’ladi. Yuqorida aytilgan maroqli mehnat markazlari bugungi kunda AQSH va Shvetsiyada bor.

Bu ikki davlatda maxsus qarovga muhtoj keksalar uchun ijtimoiy xizmatchi bo’lib u bir so’z bilan aytganda keksa va qarovsiz uy sohibiga qaraydi, parvarish qiladi, shuningdek, barcha uy yumushlarini bekamu-ko’st ado etadi. Hayotiy misollardan ma’lumki, Turkiya davlatida istiqomad qiluvchi yolg’iz qariyalarning ko’pchiligi befarzand va yolg’iz emas, faqatgina ularning dilbandlari xorij davlatlarda ishlaydi. Bu qariyalarga ijtimoiy xizmat xodimlari, xamshiralalar xizmat ko’rsatadi. Shuningdek, davlatlardagi valanyorlar ham bunday qariyalarning joniga oro kiradi. Rivojlangan

Xitoy va Singapur davlatlarida harajat talab qilmaydigan TAY-ChI xizmati mavjud bo‘lib, bu xizmat qariyalarni e’tibor bilan parvarishlab xatto toyib ketishidan ham asraydi. Chunki, bu xol Yoshi kata odamlarning sog‘ligiga ancha rahna solishi mumkin.

Ahamiyat qaratilishi lozim bo‘lgan omillardan yana biri – nogironligi bo‘lgan insonlarning holatidir. Bu fikrimiz isboti sifatida ikkita misol keltiramiz. Bunday shaxslar o‘z yashash joylarida yoxud kasalxonalarda ko‘zga tashlanmaydi. Ya’ni keng va atrofdagi hayotga qo‘shilish imkoniyatlari cheklangan. Taxmin qilish mumkinki, ularning ba’zi toifalari katta ommaga ko‘rinishdan uyalsa, ikkinchi toifa uchun tana va nutq imkoniyatlari cheklangan, mana shu ikki sabab yuqoridagi holatni keltirib chiqaradi. Qator rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bo‘lgan ijnsonlarni aholi gavjum va ko‘ngilochar joylarda ko‘plab uchratish mumkin. Bizda esa buning aksi. Bizning jamiyatda noto‘g‘ri stereotiplar shakllangan bo‘lib, nogironligi bor inson mavjud oilalar bu xodisani genetik sir deb hisoblab keng ommadan yashirib sun’iy izolyatsiyaga oladi. Natijada, imkoniyati cheklangan inson tashqi dunyodan butkul uziladi. Bundan tashqari, jamiyatimizda bunday farzandlarni parvarishlayotgan ota-onalar bola uchun ozgina yordam pulidan boshqa hech narsa olmaydi. Asosiy yuk va mas’uliyat oilada onaga tushadi. Ota bo‘lsa har doim ham bunday bolani qabul qila olmaydi. Shu boisdan, nogiron farzand o‘stirayotgan oilalarga insoniy ko‘mak, bandlikni ta’minlash markazlari vositasida yordam berishi kerak. Bugungi kunda jamiyatimizda mana shunday yordam markazlariga yanada ehtiyoj bor. Bu masalada G‘arb mamlakatlari ancha ilgarilab ketgan, ularda oilaga maxsus ijtimoiy ko‘makchi tayinlangan bo‘lib, u savdo sotiq, ovqat va uy yumushlarida onaga madadkor bo‘ladi. Natijada, ona hayotda emin erkinroq harakat qiladi. Bunday vaziyatda ona farzandini maxsus internatlarga topshirmasdan o‘z qo‘li bilan mehr himoyasi ostida ulg‘aytiradi. O‘sha mamlakatlarda oilaviy tazyiqlardan saqlovchi maxsus markazlar bo‘lib, ruhiy tushkunlikka tushgan ayollarga himoyachi bo‘ladi. Ishsizlik oqibatida kelib chiquvchi ijtimoiy noqulay vaziyat bunday bolalalarni parvarishlashga imkon bermaydi. O‘zbekistonda ham yolg‘iz ayollar va ularning farzandlari uchun keng imkoniyatlar va moddiy yordam tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bunday munosabat ular va farzandlari hayotida yangi muvaffaqiyat va mehnat mahsulini bunyod etilishi uchun zamin hozirlamoqda.

Taraqqiy etgan davlatlarda ijtimoiy himoya hamda palliativ ko‘mak markazlari faoliyati namunali bo‘lib, palliativ ko‘mak – salomatligini tiklash imkoni yo‘q bo‘lgan kasallikka yo‘liqqan nogironlarning ruhiyatini tiklaydi. Masalan, xavfli o‘simta kasalligiga chalingan bolalar uchun to‘siqsiz ijtimoiy yordam paketi ajratiladi. Natijada esa bunday bemor bolalar umrining so‘nggi oylarini og‘riqsiz kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Soha mutaxassisleri ma’lumotlariga tayanib aytish mumkinki, yiliga 100 mingga ayqin insonlar turli darajadagi onkologik xastaliklarga yo‘liqadi.

Bizningcha, O‘zbekistonda ham bunday xizmatlarni zamonaviy usullarini tadbiiq etish, hamda uni tajribalarga asosan holda milliy modelini ishlab chiqish zaruratga aylanmoqda. Buning uchun ijtimoiy qilish mexanizmlarini samarali faoliyati uchun barcha imkoniyatlar bor. “Davlat organlarida aniq vazifalar asosida o‘tkazilayotgan islohotlar zaminida nogironlar bandligini ta’minlashga yordam beruvchi ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning aniq rejasi hamda uslubiy islohotining aniq “manzarasini ko‘rish” mumkin.

Aholining ijtimoiy yordamga ehtiyojmand qizmiga hamjihatlikda madadkor bo‘lish, millatimizga xos an’ana sanaladi. Bunday an’analar kishilarni bir muddao atrofida jipslashtiradi. Bahamjihat insonlar jamoasi hayot daraxtining o‘q tomiridir. Davlatimiz rahbari “Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir”, deya utqitadi.

Turli tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikdagi inson farovonligini faqatgina daromadlarga asoslangan baholash o‘rniga boshqa ko‘p kriteriyali tizimlari bilan o‘lchash kambag‘allikka qarshi kurashishning samarasini yanada oshiradi. Kambag‘allik bu faqatgina daromadlar emas, bu turli o‘lchamli (toza ichimlik suvi, sog‘liqni saqlash, sanitariya holati, boshqa zarur xizmatlar) hayot sifatini ifodalovchi ko‘rsatkichdir. Maqsadli ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimidagi bu o‘zgarishlar qisman Avstriya, Belgiya, Avstraliya, Kanada, Chexiya, Daniya va boshqa mamlakatlarda 2000 yillarning o‘rtalarida rasmiy kambag‘allik darajasini kamaytirishga omil bo‘lgan.

Olib borilgan ilmiy izlanish xulosalaridan ma’lumki, qashshoqlik darajasini kamaytirish maqsadida bir necha modellar tadbiiq etiladi. Masalan, shved modelida ikki maqsad nazarda tutiladi: yuz foiz bandlik hamda daromadlarni mutanosibligini muvofiqlashtirish. Bu davlatda ishsiz shaxslarga ta’lim berish, malakasini oshirish, istiqbolli yo‘nalishlarga burish maqbul yechim sabaladi.

2017 yilga kelib Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan “Xalq qabulxona”lari ochilgach, bu nechog‘lik og‘riqli masala bo‘lib qolgani yaqqol ko‘rindi. Bunga albatta qilingan murojaatlar sonidan ham ko‘rish mumkin. Ko‘rinadiki, so‘nggi yillarda xalqning ijtimoiy-iqtisodiy favovonligi yo‘lida yuzaga kelgan kamchiliklar sektorlar yordamida jamlangan axborotlarga asosan qo‘l kuchi bilan yechilayotgani ijobiy natijalarni bermoqda. Shunga qaramay, ayrim o‘rinlarda “inson omiliga” butkul suyanib masalani hal etishga urinish navbatdagi chigallikni ham yuza keltirishi mumkin. Bunda raqamlarni real hisoblash orqali kompleks yondoshuvlar asosida yuzaga kelgan nuqsonlar tugatiladi. Bundan tashqari, inson omili ishtirokisiz kompyuter texnologiyalari yordamida vakant ish o‘rinlari bazasini hsakllantirib, ularga munosib fuqarolarni tanlash ijobiy samara ham bermoqda.

O‘zbekistonda ishsizlik muammosiga barham berishda hamda yangi ish o‘rinlari paydo qilishda tadbirkorlar, ishbilarmonlar hamda investitsiya olib kiruvchi xorij biznesmenlar ham salnmoqli xissa qo‘shmoqda. Bu jaayonni esa hukumatimiz alohida qonun va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan qo‘llab-quvvatlamqda.